

BOLA TARBIYASIDA PSIXOLOGIYANING YANGICHA NAZARIYASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15427090>

Jobborova Nodira Murod qizi

Toshkent Amaliy Fanlar mustaqil izlanuvchi

E-mail NodiraJabborovaq9p

Tel +998339950009

Annotatsiya

Maqolada bola tarbiyasi jarayonida psixologiyaning zamonaviy nazariyalari va ularning ahamiyati tahlil qilinadi. Bolaning shaxsiy rivojlanishi, emotsional-intellektual salohiyatining shakllanishi va ijtimoiy moslashuvi psixologiyaning yangi yondashuvlari asosida yoritiladi. Zamonaviy psixologik paradigmalarning tarbiya tizimiga kiritilishi, tarbiyaviy metodlar va prinsiplar evolyutsiyasi ko'rib chiqiladi.

Абстрактный

В статье анализируются современные теории психологии и их значение в процессе воспитания ребенка. На основе новых подходов в психологии рассматриваются вопросы личностного развития ребенка, формирования эмоционально-интеллектуального потенциала и социальной адаптации. Рассматривается внедрение современных психологических парадигм в систему образования, эволюция методов и принципов обучения, развитие образовательных практик.

Abstract

The article analyzes modern theories of psychology and their importance in the process of raising a child. The personal development of a child, the formation of emotional-intellectual potential and social adaptation are covered on the basis of new approaches to psychology. The introduction of modern psychological paradigms into the education system, the evolution of educational methods and principles are considered.

Kalit so'zlar

Bola tarbiyasi, psixologik nazariya, zamonaviy ta'lim, emotsional intellekt, individual yondashuv, ijtimoiy moslashuv.

Kirish

Buyuk mutafakkir Ibn Sino bobomizdan bir notanish kishi "Men farzandimni yaxshi xulqli qilib tarbiyalamoqchiman, tarbiyalashni qachondan boshlay" - deb soʻrabdi. Bobomiz, uning farzandi necha yoshligini undan soʻraganlarida, notanish kishi uch yosh deb javob beribdi. Shunda bobomiz, "Ey, birodar! Bolani tarbiyalashga kechikibsiz, vaholanki, bolani tarbiyalashni ona qornida ekanligidanoq boshlash kerak," - deb javob bergan ekanlar Demak, bolani nafaqat yoshligidan balki, ona qornida paydo boʻlganidan boshlab tarbiyalab borishimiz kerak ekan. Bolani ona qorni qanday tarbiyalash mumkin? Dastlab shu savolga javob topishimiz lozim. Bola ona qornida paydo boʻlganida, ona faqat yaxshi narsalarni oʻylashi, vitaminli taomlarni isteʼmol qilishi, badiiy asarlar mutolaa qilishi va shu bilan bir qatorda, jismoniy mashqlar ham qilishi kerak. Shundagina bolani ona bolani hali tugʻilmasdanoq tarbiyalab boshlaydi. "Tarbiya" soʻzi arabcha soʻzdan olingan boʻlib, "haq yoʻliga hidoyat qilmoq," "unib, oʻstirmoq" kabi maʼnolarni anglatadi. Bola tarbiyasida uning psixologiyasiga eʼtibor berish lozim. "Psixologiya"soʻzi yunonchadan tarjima qilganda, "jon, ruhga oid taʼlimot" degan maʼnoni bildiradi. Demak, psixologiya ruhiyatni oʻrganadi. Bola tarbiyasida esa uning ruhiyati birinchi oʻrinda turadi. Bolani tarbiyalashda otaona, uning ruhiyatiga salbiy taʼsir koʻrsatadigan gaplarni aytadilar, bu esa notoʻgʻri. Jahonning rivojlangan davlatlaridan biri AQSHda bola tarbiyasida, uning ruhiyatiga alohida eʼtibor beriladi. Yaʼni, bola nimadir yasasa yoki oʻzi uchun qiziqarli boʻlgan mashgʻulotlar bilan shugʻullansa, masalan, rasm chizsa ota-ona unga motivatsiya beradigan soʻzlarni aytadilar - "Sen bundan ham yaxshisini chiza olasan," "Sening qoʻlingdan keladi," "Sen zoʻrsan" kabi. Bunday soʻzlar bolani ruhlantiradi. U yanada koʻproq yutuqlarga erishishga harakat qiladi. Bolalar psixologiyasi - psixologiya sohasi boʻlib, bolalar psixologik rivojlanishining umumiy xususiyatlarini, bu jarayon turli yosh bosqichlarida qanday kechishini, uni harakatlantiruvchi kuchlar va qonuniyatlarini oʻrganadi. Shu sababli bolalar psixologiyasini "yosh psixologiyasi" deb ham ataydilar. Bolalar psixologiyasi bolalarda psixik jarayonlar paydo boʻlishi va rivojlanishini, psixik xususiyatlar qaror topishini, xilma-xil faoliyatlarning rivojlanishini, bolaning shaxs sifatida rivojlanishini oʻrganadi.

Bola tarbiyasi insoniyat taraqqiyotining doimiy eʼtibor markazida boʻlib kelgan. Tarixiy davrlarda bu soha falsafa, din, pedagogika bilan chambarchas bogʻliq rivojlangan boʻlsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab psixologiya bola tarbiyasida markaziy oʻrinni egallay boshladi. XXI asrning tez oʻzgarayotgan axborot va texnologiya sharoitida esa, bolaning individual ehtiyojlari va emotsional holatini inobatga oluvchi yangi psixologik yondashuvlar shakllandi. Bugungi

kunda bola tarbiyasi faqatgina axloqiy qoidalarni o'rgatish emas, balki shaxsning to'laqonli va uyg'un rivojlanishini ta'minlash vazifasini ham o'z zimmasiga olmoqda.

Asosiy qism

1. Psixologiyaning tarbiya jarayoniga ta'sirining evolyutsiyasi

Ilgari bola tarbiyasida qat'iy nazorat va tashqi tartib-intizom yetakchi omil hisoblangan bo'lsa, psixologiyaning rivojlanishi bilan ichki motivatsiya, individual qobiliyatlarni rivojlantirish, bolaning tabiiy ehtiyojlarini hisobga olish g'oyasi paydo bo'ldi. Lev Vygotskiy, Jan Piaget, Erik Erikson kabi olimlar bolaning rivojlanish bosqichlarini chuqur o'rgangan va ularning psixologik xususiyatlariga mos tarbiyaviy yondashuvlar ishlab chiqqanlar. Inson shaxs bo'lishi uchun o'zini yaxlit inson sifatida his qilishi, o'ziga xos individual xususiyatlari bilan boshqalardan farq qilishi, biron bir mehnat faoliyati bilan mustaqil shug'ullana olishi kerak. U shundagina shaxs bo'la oladi. Psixologiyada shaxs taraqqiyotini davrlarga bo'lib o'rganishga katta e'tibor qaratilgan. D.B.Elkonin bolalikning uch bosqichini farqlab beradi: ilk bolalik, bolalik va o'smirlik. Har bir bosqichning o'ziga xos yetakchi faoliyati, o'zgarishlari va rivojlanish shart-sharoitlari mavjud bo'ladi va ularni bilish tarbiyachilar uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Har bir bosqichda faoliyat motivlari ham o'zgaradi, ularning o'zgarishi shaxs ehtiyojlari va talablari darajasining o'zgarishiga mos ravishda ey beradi. Bunday vaqtda bola bilan yaxshi munosabatda bo'lish, uning barcha savollariga javob berish tavsiya etiladi.

2. Yangicha psixologik nazariyalar va tarbiya

2.1. Emotsional intellekt nazariyasi

Daniel Goleman tomonidan ilgari surilgan emotsional intellekt (EQ) tushunchasi, bolaning nafaqat bilim olishi, balki o'z his-tuyg'ularini boshqarishi, boshqalar bilan munosabatini sog'lom tashkil etishi muhimligini ko'rsatdi. Bugungi kunda bola tarbiyasida EQ ni rivojlantirish asosiy vazifa sifatida belgilanmoqda.

2.2. Pozitiv psixologiya va bola tarbiyasi

Martin Seligman va uning izdoshlari rivojlantirgan pozitiv psixologiya oqimi bola tarbiyasida bolalarning kuchli tomonlarini rivojlantirish, ijobiy hissiyotlar va umidni qo'llab-quvvatlashni targ'ib qiladi. Bu yondashuv bolaning ruhiy sog'ligini mustahkamlash va o'zini anglash darajasini oshirishga xizmat qiladi.

2.3. Konstruktsionistik yondashuv

Jan Piaget va Jerome Bruner tomonidan asos solingan konstruktsionistik nazariya bola bilimlarni faol ravishda o'z tajribasi asosida o'zlashtirishini ta'kidlaydi. Tarbiyachi yoki ota-ona bola uchun tayyor bilimni berishga emas, balki

uning mustaqil fikrlashi va tajriba orqali o'rganishini rag'batlantirishga e'tibor qaratishi zarur.

3. Bola tarbiyasida zamonaviy psixologik metodlar

Empatiya asosida tarbiya: Bolaning hissiyotlarini tushunish va hurmat qilish orqali uning ichki dunyosi bilan muloqot o'rnatish.

O'z-o'zini boshqarishni o'rgatish: Bolaga mustaqil qaror qabul qilish, xatolaridan saboq olish imkoniyatini berish.

Ijobyi kuchaytirish: Bolaning kichik yutuqlarini ham qadrlash va ijobiy fikr bilan rag'batlantirish orqali motivatsiyani oshirish.

Individual yondashuv: Har bir bolaning shaxsiy ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda tarbiyaviy rejalar tuzish.

4. Zamonaviy texnologiyalar va tarbiya

Raqamli asrda bolalar tarbiyasi yangi chaqiriqlarga duch kelmoqda. Virtual dunyo va internet makoni bolalarning psixikasiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun ota-onalar va tarbiyachilar raqamli savodxonlikni oshirish, bolalarning onlayn xavfsizligini ta'minlash va axborot oqimi bilan ongli ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytamanki, bola tarbiyasiga e'tiborli bo'lish va uning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan va alamzada qilib qo'yadigan so'zlardan, mashg'ulotlardan saqlanish lozim. Bolani maktabgacha bo'lgan davrda jamoaga moslashtirish uchun maktabgacha ta'lim muassasalariga berish to'g'ri bo'ladi. Chunki bola muassasada jamoada o'zini tutishni o'rganadi, nutqi rivojlanadi, dunyoqarashi kengayadi va shu bilan bir qatorda ota-onadan yiroqda o'zini tutishni o'rganadi. Maktabga kelganda esa maktab muhitiga moslashishi osonroq bo'ladi. Maktabga chiqqanda ham o'qituvchi u bilan astoydil shug'ullanadi, lekin ota-onadan ham bolaga e'tiborli bo'lish, o'qishini nazorat qilish talab etiladi. Shundagina, vataniga foydasi tegadigan shaxsni tarbiyalash mumkin bo'ladi. Bola tarbiyasida psixologiyani yangicha nazariyalari — bolaning shaxs sifatida rivojlanishini, uning emotsional-intellektual salohiyatini oshirishni va ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashishini ta'minlashga qaratilgan. Zamonaviy psixologik yondashuvlar bolaning individual xususiyatlarini hurmat qilish, uning ijobiy imkoniyatlarini kengaytirish va sog'lom shaxs shakllanishi uchun zarur sharoit yaratishni taqozo etmoqda. Tarbiya jarayonida psixologik bilimlardan ongli va samarali foydalanish kelajak avlodning barkamol shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ibn Sinoning tarbiyaga oid fikrlari;
2. Yosh davrlari psixologiyasi – O'qituvchilar uchun turli xil qiziqarli ma'lumotlar.
3. Bolalar psixologiyasi- Vikipediya
https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bolalar_psixologiyasi
4. D.B.Elkoninnig yosh davrlari nazariyasi;
5. Норкобилова Р. О 'quvchilarning ona tili bo 'yicha iqtidorini aniqlash va rivojlantirishning o 'ziga xosligi //Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 379-384.
6. Ashurova S., Norqobilova R. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA OLIB BORILAYOTGAN ZAMONAVIY ISLOHOTLAR